



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

TARG'IBOT MATNLARIGA TAHLILY JIHATDAN YONDASHISH: MUAMMO HAMDA YECHIMLAR

Latofat Toshmuhammedova, professor

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Mohigul Abdullayeva

Buxoro viloyati "Hududgaz Buxoro" gaz ta'minoti filiali matbuot kotibi
famous-star@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179100>

***Annotatsiya:** Maqolada tashkilot axborot xizmati tomonidan jarayonlar targ'ibot qilinganida ularning matniga e'tibor qaratish hamda til, uslubining belgilanishi haqida yozilgan. Shuningdek, matnning ta'sirchanligini oshiruvchi omillar, terminlar, ularning qo'llanilishi, uslubiy yondashuv, janrlar to'g'risida bayon etilgan. Ayni sohada uchrab turadigan ba'zi muammolarga yechim bevosita matbuot kotibining uslubi va belgilangan qoidalarga rioya etganligi sabab bartaraf etilishi mumkinligi misollar asosida ko'rsatilgan. Matn yozganda sarlavha tanlash, atamalarini qo'llash, ta'sirchanlikni oshiruvchi omillardan to'g'ri foydalanish borasida batafsil qayd etilgan.*

***Kalit so'zlar:** kommunikatsiya, strategiya, resipiyent, reaksiya, lingvoslub, ta'sirchanlik, piar.*

Kirish. Axborot asri – bu davrda soniyasiga ma'lumotlar yangilanib bormoqda. Jamiyat turli kommunikatsiya vositalari orqali ma'lumotlarga ega bo'lishmoqda. Fikrlar, munosabatlar bildirilmoqda. Muhokamalar qilinmoqda. Talab ham oshmoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali beriladigan har bir axborot uchun avvalo o'sha materialning muallifi mas'ul hisoblanadi. Demak, ochiqlik va oshkoralikni ta'minlashda jurnalistning o'rni bo'lakcha. Ammo shu o'rinda tashkilot axborot xizmati vakillari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Ular bevosita tashkilot imidjini yaratishda jurnalistlarni axborot bilan ta'minlab turishadi. Ommaviy kommunikatsiyaning barcha vositalaridan foydalanib, targ'ibot ishini kengaytirishadi. Ommaviy kommunikatsiya bu axborotni tarqatish, shunchaki emas, balki tizimli ravishda tarqatish degani. Uning asosiy ko'rinishlarini bosma nashrlar, radio, kino, televideniye va minglab saytlar, ijtimoiy kanallar orqali ko'rish mumkin. Bu bo'yicha olimlar o'zlarining ilmiy qarashlarini ham qayd etishgan. Jumladan, amerikalik tadqiqotchi X. Lassvell hozirgi kunda mumtoz, deb tan olingan ommaviy kommunikatsiya sxemasini taklif qildi: "Kim nima aytti?, Qaysi aloqa kanali orqali?, Kimga va qanday natija bilan?". Keyinchalik X.Lassvell o'z sxemasini yanada takomillashtirdi va u quyidagi ko'rinishga keldi: "kommunikatsiya ishtirokchilari – istiqbol reja – vaziyat – asosiy qadriyatlar – strategiyalar – resipiyent reaksiyalari – effektlar". [2] Shuningdek, ommaviy kommunikatsiya – o'ziga xos ijtimoiy ta'sir qilish tizimi ekan, bu haqida rus olimi Volodina kommunikativ sohaning umumiy ahamiyati shundaki, uning markazida o'ziga xos ichki jarayonlar va madaniy



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

xarakteristikasiga ega bo'lgan insoniyat jamiyati turadi, [1] deya ta'kidlaydi. Demak, axborot xizmati vakili ommaviy kommunikatsiya turlaridan foydalangan holda targ'ibotni yo'lga qo'yar ekan, u matnlarning lingvoslubiy jihatlariga ham e'tibor qaratishi zarur. Matn uslubi bu muayyan bir uslub yoki janrga mansublik hisoblanadi. Muallif targ'ibot ishida aynan unga e'tibor berishi, ma'lumotni yatkazish tartibini bilishi va bu bilan o'z uslubini ham belgilay olishi mumkin. Har bir tashkilotning yo'nalishi va qarashlari bor. Lekin matbuot kotibi matn bilan ishlar ekan, avvalo uning tushunarlik darajasi, jamoatchilikka yetkazib berishdagi holatini tahlil qilishi lozim. Chunki har qanday matnda atamalar, sohaviy iboralar qo'llanilishi tabiiy. Shuning uchun targ'ibot matni aniq usub asosida yozilishi shart. Matn uslubi tushunchasi mohiyat e'tibori bilan muallif shaxsiy uslubining nutqiy mahoratining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu ma'noda matn uslubi ifodasi muallif uslubi ifodasiga ma'nodoshdir.

Asosiy qism. Ilmiy adabiyotlarda uslubning bir qator ko'rinishlari keltirilgan. Xususan, badiiy, ilmiy-ommabop, ijtimoiy-siyosiy uslub kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Ammo bu kabi uslub orqali yetkazilgan axborotdan hamma ham o'ziga kerakli ma'lumotni olib bilmaydi. Matniy muloqotda til vositalaridan foydalanishda matnning uslubiy toifalanishi muhim ahamiyatga ega ekan, [7] uslubni bilgan holda ma'lumotni qayd etishi lozim. Chunki aniq faktlarga tayangan holda ijtimoiy yo'nalishdan kelib chiqib yozilgan asar mohiyatan tushunarli bo'ladi. Rasmiy uslubda yozilgan matnlarda aniqlik va tushunarlik, faktlarga asoslanganlik tamoyillari ustun turadi. Rasmiy nutqqa xos til vositalaridan foydalaniladi. Ba'zan esa quruq xabar tarzida ham bo'lishi mumkin. Odatda rasmiy matnlarda ta'sirchanlikni ta'minlovchi til vositalaridan foydalanilmaydi. Bo'yoqdorlik hissi sezilmaydi. Viloyat hokimligining rasmiy telegram kanalida *"RASMIY XABAR. Ertaga, 5-oktyabr kuni soat 08:00 da viloyat hokimligi binosining katta majlislar zalida Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining navbatdagi sessiyasi o'tkaziladi. Sessiya kun tartibidan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etishga oid qismi Buxoro viloyatida ijro etilishi holatini o'rganish to'g'risida"gi*

"Viloyatda sog'liqni saqlashni rivojlantirishga oid davlat dasturlarining bajarilishi, kasalliklar profilaktikasining holati, sog'lom turmush tarzini va to'g'ri ovqatlanishni shakllantirish, shuningdek sog'liqni saqlashning asosiy ko'rsatkichlari yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganish yakunlari to'g'risida"gi masalalar o'rin olgan. Sessiya viloyat hokimligining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

sahifalari, shuningdek, "Buxoro" telekanali orqali to'g'ridan-to'g'ri namoyish etiladi". [8] mazmunidagi xabar berilgan.

Matnda rasmiy uslubga xos bo'lgan obyektivlik, soddalik ifodalangan. Shuningdek, bo'yoqdorlik hissi mavjud emas. Aniq ma'lumotlar qayd etilgan. Matnni o'qib bevosita kerakli ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Ilmiy uslubda yozilgan matnlarda ham o'ziga xoslik, aniqlik bor. Ular boshqa uslub matnlaridan keskin farq qiladi. Ayni shu uslubda yozilgan mediamatnlarda aniqlik va faktlarga asoslanganlik bilan birga ilmiy-nazariy yondashuv ham talab qilinadi. Bu murakkab jarayon hisoblanadi, muallif, muharrirdan yoritilayotgan soha haqida chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga ushbu bilimlarni ifoda qilish uchun nutq mahorati ham talab qilinadi. Ilmiy matnlar o'zining mohiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: sof ilmiy matnlar va ilmiy-ommabop matnlar. Bu matnlarning har ikki ko'rinishida til vositalaridan foydalanish farqlanadi. Sof ilmiy matnlarda rasmiy uslubga xoslik, ilmiylik, atama va neytral ma'nodagi so'zlardan keng foydalanishga ahamiyat berilsa, ilmiy-ommabop matnlarda shular bilan birga ommaboplik va ta'sirchanlikni ta'minlovchi unsurlarni qo'llashga ham e'tibor qaratiladi. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy, piar matnlari qanday uslubda berish ma'qulroq – sof ilmiy uslubdami yoki ilmiy-ommabop uslubdami? Albatta, ilmiy-ommabop uslubda berilgan matn bilan tanishish osonroq. Ammo piar matnlarining ilmiy uslubga tayangan holda yozilganini juda kam uchratish mumkin.

Badiiy uslubdagi matnlar esa tamoman farq qiladi. Ularda ta'sirchanlik, bo'yoqdorlik hissi kuchli bo'ladi. Odatda, axborot xizmati vakillari bunday uslubda ijod qilishmaydi, ya'ni deyarli bu uslubda qilingan targ'ibotni kam uchratish mumkin. Agar tashkilot matbuot xodimi ocherk yoki hudud to'g'risida ma'lumot bersa bo'yoqdorlikka tayanib, matn yozadi, shubhasiz, badiiy uslub qoidalariga asoslangan holda fikrlar bayon etilishi mumkin.

Piar matnlarda so'zlarning uslubiy bo'yog'iga e'tibor berish lozim. Chunki haddan tashqari kuchli bo'yoqdorlikka ega bo'lgan so'zni ishlatish ma'lumotning aniq ifodaviyligini yashiradi. Noaniqlik kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun piar matnini tuzishda har bir so'zning boshqa so'z bilan leksik bog'lanishini e'tiborga olish kerak. Vaholanki, bunday aloqa tilning rivojlanishida yanada shakllanadi. Masalan, Buxoro viloyat soliq boshqarmasining rasmiy telegram kanalida quyidagi mazmunda matn berilgan: *"Vobkent va Olot tumanlari soliq inspeksiyalarida soliq organlarini korrupsiyasiz tizimga aylantirish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari hamda boshqarmaning Shaxsiy xavfsizlik bo'limi mas'ullari tomonidan profilaktik tadbirlar o'tkazildi". [11] Matnda ortiqcha va takroran*



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

qo'llanilgan so'z sabab mohiyatda uslubiy xatolik kuzatilgan. Bu bilan esa matn mohiyatini tushunishda ya'ni *“Vobkent va Olot tumanlari soliq inspeksiyalarida sohani korrupsiyasiz tizimga aylantirish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari hamda boshqarmaning shaxsiy xavfsizlik bo'limi mas'ullari tomonidan profilaktik tadbirlar o'tkazildi”* tarzida berilishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Chunki har bir noto'g'ri qo'llanilgan so'z yoki belgi matn mohiyatini o'zgartiradi, aniq ma'lumotga ega bo'lish uchun to'siq bo'lishi mumkin.

Ba'zi targ'ibot matnlarida ko'p uchraydigan nuqsonlardan yana biri bu – ko'p so'zlilik. Ya'ni, aniq maqsadni aytish uchun juda ko'p jumlar keltiriladi, matn qisqartirilmasdan, aksincha, murakkablashtiriladi. Bu esa o'quvchini zeriktirishi tabiiy. Tahirtalab matn o'qilmay qoladi. Natijada targ'ibot ishi haqida batafsil ma'lumot yetkazilmaydi. Jumladan, Buxoro viloyat prokuraturasining rasmiy telegram kanalida tashkil etilgan sayyor qabul haqida matn berilgan. *“Shofirkon tuman prokurori, 2-sektor rahbari Sh.Mamarizayev xalq qabulxonasi bilan hamkorlikda tasdiqlangan reja-grafigiga asosan “Mirzoqul” MFY hududida navbatdagi sayyor qabuli o'tkazildi.*

Mazkur qabul davomida fuqarolarning elektr ta'minotini yaxshilash, belgilangan dasturlar asosida qurilish ishlarini tezlashtirish, ijtimoiy yordam ko'rsatish hamda mehnat munosabatlari bilan bog'liq muammolari tinglandi”. [10] Matndagi ba'zi texnik xatolarni inobatga olmaganda, uslubiy g'alizlikni ko'rish mumkin. Targ'ibotchi bo'lib o'tgan voqea-hodisa to'g'risida batafsil ma'lumotni keltirmagan. Shuningdek, gap tarkibida “-il” majhul nisbati keltirilganda bevosita obyekt ustuvorlashishi kerak. Matnda mantiqiy obyekt grammatik ega maqomini olgan. Qolaversa, nisbat o'timli fe'ldan hosil qilingan. Majhul nisbat [-i)\ va [-i)n\ shakllari yordamida hosil qilinadi. Bu nisbatli fe'l “subyektsizlashadi”, aniqrog'i, obyekt ustuvorlashib, ega vazifasiga o'tadi, mantiqiy obyekt grammatik ega maqomini oladi. Majhul nisbat asosan o'timli, qisman o'timsiz fe'ldan hosil qilinadi. [4] Birgina grammatik qo'shimcha o'zgarganligi sabab matn ma'nosi ham o'zgargan, uslubiy xatolik kuzatilgan.

Matn yaratish murakkab jarayon bo'lib, buning uchun muallif nafaqat targ'ibot ishida bevosita ishtirok etishi, balki, uni yetkazib berishda nutqiy birliklar, matn turlari va uslubiy xususiyatlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Matn yaratishda til vositalari haqida chuqur bilim, ularni amalda qo'llash mahorati talab qilinadi. Buning uchun lingvistik vositalardan biri nutq birliklarini to'g'ri ajratishi va ularni matnda o'z o'rnida qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahorat ham eng asosiy xususiyatlardan hisoblanadi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Targ'ibot matnlarda ba'zan atamalarning qo'llanilishi va ularning tushunarsiz ma'nosi o'quvchini zeriktirishi tabiiy. Shuning uchun har bir axborot xizmati matn yaratishi davomida sohaga oid terminlarning izohiga ham alohida to'xtalib o'tishi lozim. Kuzatuvlar davomida aniqlandiki, aksar piar matnlarida terminlar noaniqligicha qolmoqda. Jarayon haqida esa to'liq ma'lumot berilmayapti. Buxoro viloyat Soliq boshqarmasining rasmiy telegram kanalida quyidagi e'lon berilgan: *"16-sentabr – AOS to'lovchilar uchun 2024-yil avgust oyida chop etilgan onlayn-NKT cheklarini tahrirlashning oxirgi kuni"*. [12] Undagi "AOS" va "onlayn-NKT" singari atamalar shubhasiz, foydalanuvchi uchun tushunarsiz ma'noga ega. Agar muallif matn yozganda aynan ikki so'zga izoh berib o'tganida e'lon mohiyati to'g'risida to'liqroq tushunchaga ega bo'lish mumkin edi. Terminlar muayyan sohaga taalluqli bo'ladi va maxsus atash uchun xizmat qiladi. Har bir fan, ilm, kasb-hunar, texnika o'z terminiga ega. Ana shu terminlar majmui qaysi sohaga oid bo'lsa shu sohaning leksikasi hisoblanadi. [5] To'g'ri, soliq tizimiga oid minglab terminlar bor. Ammo targ'ibot matni aynan tizim vakillari uchun emas, shunday ekan ularni ifodalashda alohida mohiyati ham berilishi shart.

Axborot xizmati xodimi asosan qanday janrda material tayyorlasa, o'z maqsadiga erishadi? Shubhasiz, bu uning tanlovi. Ammo hamma ham ocherk, pamflet, taqriz va boshqa shunga o'xshash janrdagi matnlar mohiyatini to'liq tushunmaydi. Shuning uchun matbuot kotibi ma'lumotni osonroq yetkazish uchun asosan xabar janridan foydalangani ma'qulroq. Odatda, aksar targ'ibot matnlari ham aynan shu janrda tayyorlanadi. Janrlar tasnifi asosida ularning matn tarkibidagi o'ziga xoslik yotadi. Demak, muayyan janrdagi axborot ommaviy kommunikatsiya doirasida alohida xususiyatlarga ega bo'lgan jurnalist ijodining alohida bir turi hisoblanadi. Janr tahlili shakl orqali mazmuni tushunish demakdir.[6]

Har bir janrning vazifasi va imkoniyatlarini bilish hamda ularga ijodiy yondashish ommaviy kommunikatsiyaning samaradorligini ta'minlashga, kontekstual ta'sir qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan janrga jiddiy e'tibor berish lozim.

Ommaviy muloqot janrlarining bir-biriga ta'siri, o'zaro aralashuv jarayoni esa, mazmun o'zgarishlariga, nutq shaklining qonuniy muvofiqlashuviga, shuningdek, jurnalistning ijodga mahorat bilan kirishishiga bog'liq. [3] Har bir piar matnida ma'noni kuchaytirish maqsadida ham uning janriga alohida yondashish shart. Asosan xabar janrida berilsa-da, ba'zilar boshqa janrda yoritiladi. Buxoro.uz rasmiy kanali orqali *"Shofirkon. Qishloqda issiqxona qishin yozin daromad manbai"* [9] sarlavhali matn bilan tanishganimizda, bevosita matn reportaj janri asosida tayyorlangan.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Reportaj (ing. report — yetkazmoq, xabar qilmoq) — jurnalistikaning informatsion janr turi. Bu janrda jurnalist (reportyor) bevosita o'zi ishtirok etgan, shohidi bo'lgan, ko'rgan voqea-hodisalar haqida zudlik bilan yorqin, atroflicha xabar beradi. Bunda, odatda, muallif voqealarni o'z tilidan bayon etadi. [13]

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tadigan bo'lsak, matbuot kotibi tomonidan yoziladigan targ'ibor matni uslub va til jihatidan me'yor talablariga rioya etilsa-da, janriy xususiyatiga ham ega bo'lishi lozim. Har bir janrning vazifasi, imkoniyatlarini bilish hamda ularga ijodiy yondashish ommaviy kommunikatsiyaning samaradorligini ta'minlashda, kontekstual ta'sir qilish jarayoni takomillashtirishda xizmat qiladi. Shuningdek, terminlarni qo'llashda e'tibor berilishi, lisoniy vositalarni ishlatish qoidalariga rioya etilishi shart. Fikr-mulohazalarni ifodalashda til vositalari imkoniyatlarini puxta bilish, amalda qo'llay olish eng muhim omildir. Bu bilan esa jurnalist ana shu omillar asosida o'z asarini mukammal yarata oladi. Axborot – mahsulot. Uning tayyor holda yetkazilishi uchun katta kuch va yondashuv kerak. Bunda esa bevosita birgina jurnalist yoki matbuot kotibi emas, har ikkisining jipslashishi, hamkorlikdagi faoliyati juda muhim. Shuning uchun har bir targ'ibot ishida til me'yorlariga rioya etilsa, o'z uslubiga ega bo'lsa ommaviy axborot vositalari xodimlari jamoatchilikni aniq axborot bilan ta'minlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Володина М.Н. Язык средств массовой информации. – М.: Альма Мастер Академический проспект, 2008. – С. 12.
2. Lasswell H.D. The structure and function of communication in society// Bryson (ed.). The Communication of Ideas. New York, 1948
3. Mirzayeva N. Bolalar jurnalistikasining kommunikativ va kontekstual xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – 56-b
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 197-b
5. Tohirov Z. Adabiy tur, termin, tahrir va muharrirlik mahorati. – T.: Noshir, 2019. – 26-b
6. Toshaliyev I., Abdsuattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. O'quv qo'llanma. – T.: Zar qalam, 2006. – B.89.
7. Shomaqsudova S. Mediamatnlarning tili, uslubi va janriy xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – 80-b
8. https://t.me/buxorouz_official/97303
9. https://t.me/buxorouz_official/96784
10. https://t.me/Buxoro_viloyat_prokuraturasi/19420
11. https://t.me/soliq_Live/10485
12. <https://t.me/soliqnews/14297>
13. <https://uz.wikipedia.org/>